

SHAFOAT TERMIZIY SHE'RLARIDA FOLKLOR ASOSIDAGI OBRAZLAR TALQINI

Muxtorova Mahfuza Shavkatjon qizi

TerDU o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10163506>

Annotatsiya: Shoir she'rlarida folklorizm yetakchi o'rinda turdi, asosan, doston qahramonlaridan tashqari ertak qahramonlari hamda insonlar uchun sevimli bo'lgan Qorbobo, Qorqiz va Qor odam obrazlariga ham alohida to'xtalib o'tgan va mahorat bilan obraz sifatida qo'llay olgan.

Kalit so'z: Qorbobo, Qorqiz va Qor odam, Ertak, ramz

Shoir ijodida xalq rivoyatlaridan tashqari xalq ertaklariga xos syujetga bo'lgan ega, undagi obrazlar ishtirokida ham qator asarlar yaratadi. Ma'lumki, ertak dunyo xalqlari og'zaki ijodining eng qadimiy va sermahsul janridir. Umuman xalq og'zaki ijodining ertak janriga kichik bolalar emas, balki katta yoshlilar ham ishonishgan. Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. Ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. O'zbek adabiyotida folklorning boshqa janrlari qatori yozma ertaklar ham yaratildi. O'tgan asr boshida qator ijodkorlar ertaklardagi motiv va obrazlarga muroojaat qilishi kuchaydi. Jumladan, Hamid Olimjon ijody merosining bir qismi folklor ta'sirida yaratilgan she'riy ertaklar edi. Shuningdek, X.Davron, U.Azim, P.Mo'min, A.Obidjon kabi shoirlar ijodida bolalarga bag'ishlab yozilgan she'riy ertaklar ayratildi. Tadqiqotchi L. Sharipova: "Ertak motivlarining stilizatsiyasi ham zamon ehtiyoji tufayli yuzaga keldi. .. deb yozadi. Uning saylanmasining to'rtinchi manzilida "Arosat odam" nomli dramatik dosrtoni bor. Ushbu dostonida dunyo xalqlari ertaklarida uchraydigan Qorbobo, Qorqiz va Qor odam kabi obrazlar bor. Doston uch qism Kirish, asosiy qism va xulosadan tashkil topgan. Voqealar yuksak sorli tog', uning bag'ridagi qishloqning bir cheti, ya'ni bir-ikkita uylar ham ko'rinib turadi. O'rtada balandroq joyda bir tup yosh navqiron archa. Bir yon tik soya, tagi zov bo'lgan joyda kechadi. Bu manzara oxirigacha o'zgarmaydi). Dramada shoir yangi yil arafasida mo'jaza kutib, kim muhabbat dardida yonganini bilmoqchi bo'ladi, muhabbatga qasida izlaydi. Unga birinchi do'sti – Arosat odam uchraydi. Ikkichi Qorboboga duch keladi, Shoir Qorbobo monologida uning portretini chizadi.

Ikki qutb qo'sh poytaxtim, ayoz erkim,


Ummonlarda suzar qal'am — aysbergim.
Sevgan joyim sochlarimday oppoq Shimol,
Soqollarim silkinganda turar shamol.
Qovoq uysam qirovlar o'rmonlarim,
Oq to'n kiyib tog'lar kutar farmonlarim.
Qo'limda bor olmos muzdan quyma asom,
Qor bosadi vodiylarga qadam bossam.
Quvvat olar tilagimdan oq yuraklar.

Ma'lumki, Qorbobo asli Santa Klaus bo'lib, qadimgi slavyan mifologiyasida yaratilgan. Qorqiz esa keyinchalik yaratiladi. Qorbobo slavyanlarning Rojdestvo bayramida bolalarga bayram sovg'alari ulashadi. U bilan bog'liq mazkur syujet Yangi yil bayramini nishonlaydigan ko'plab xalqlarning og'zaki ijodidan joy olgan. Qorbobo bilan birga Qorqiz, Qorodam obrazlari o'tgan asrdan boshlab, o'zbek adabiyotida ham paydo bo'ldi. Dramada shoir Qorqizni o'z monologi orqali tasvirlaydi:

Tom, tarnovda tovlanguvchi sumalaklar,
Afsunimdan bino billur jamalaklar.
Olam kezsam boshga kiyib zumrad toj,
Jamolimga mulki borliq to'lar xiroj.
Men o'ynasam oq bulutlar sahnida ko'r.
Kokillarim quyuni qorgul supurar.
Olam to'lar qahqahamdan oppoq gulag,
Oppoq ishqning o'ti o'zim, go'zal o'zim,
Muhabbatman - har yurakka visol o'zim.

She'rdan voqealar hayotiylikni taminlash, shoirning badiiy g'oyasiga muvofiq ushbu obrazlar ishtirok ettirilgan. Asli hayotda bo'lganidek Qorbobo va Qorqiz rovida yigit va qiz o'ynaydi. Yangi yil bayrami turli davlatlarda milodiy yil kirib kelishini tantana qilish uchun uzoq asrlardan buyon nishonlanadi. Uning ramziy belgisi archa. Yangi yilda barcha bir-biriga ezgu niyatlar bildiradi. Dramaning bosh maqsadi insonlar o'rtasida sevgi, vafo va sadoqat tuyg'ularini ulug'lanish, muhabbatga sodiqlik borasida hech bir inson arosatdagi odamdek xatoga yo'l qo'ymaslikni ilgari suradi. Qorodam ezgulik timsoli, Qora odam yomonlik ramzi bo'lib ifodalangan. Ertak qahramonlariga murojaat xuddi shu ezgu tilaklar ro'yobi va uni qiziqarli kechishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Ko'nikmalar zarra-zarra singib qoningga,
Arosatda qariganing sezmas ekansan.



Deydi Arosat Odam. Bundaylarni hayotimizda ko'p uchratamiz. Shoir shu o'rinda davrdagi ijtimoiylikni Qorbobo, Qorqiz va Arosat odam obrazlari orqali yortib beradi.

Qani ayting shu davrada o'tirganlar,
Hammangizning yuragingiz oppoq magar,
Qop-qora bo'b men bu yerda turarmidim?

Bu Qora odam so'zlari. Arosat Odamdan Qora Odamgacha bir qadam yo'l.
Lekin shoir dunyoni ularga berib qo'ygisi kelmaydi.

Ezgulikning ibtidosi oshiq ishqida,
Armonli ishq intihosi qallda, qo'shiqda.

Shoir ushbu obrazlar orqali yaxshilik va yomonlik, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi munosabatlar ham so'z yuritadi. Bir muddat kitobxonni hayot dunyosiga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. – Ўзбек тили ва дабиёти. – Тошкент. – 1980. – № 4. – Б.37-45; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. –Т., 1994. – Б.56.;
2. Жўрақулов У. Миф ва ижодий жараён // Ҳудудсиз жилва. (Илмий-адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006. – 204 б.;
3. Madayev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent: Ma'naviyat. – 1999. – В. 13.
4. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – В. 16.

